



XALQ DEPUTATLARI NUROBOD TUMAN KENGASHINING Q A R O R I

141100, Nurobod tumani, Mustaqillik ko'chasi, 2-uy, Tel: (66) 633-16-34, (66) 633-18-66, e-mail: nurobod.t@exat.uz

2022 - yil 30 - sentabr

VI-59-143-7-99-K/22

Nurobod tuman hokimligi

Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dagi mablag‘larni mazkur tadbirlarga yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli qarori va bu boradagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash hamda Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va tuman hokimligi qoshida ochilgan “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dagi mablag‘larni mazkur tadbirlarga yo‘naltirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq, ellik to‘qqizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dagi mablag‘larni mazkur tadbirlarga yo‘naltirish to‘g‘risida tuman hokimligi moliya bo‘limi mudiri O.Abdusalomovning axboroti - ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli qarori va bu boradagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli qarorlari ijro uchun qabul qilinsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining “Ochiq budget” axborot portali orqali “Tashabbusli budget” jarayonida fuqarolar tomonidan o‘z hududidagi mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha qoldirilgan takliflarning 3-bosqich, ya’ni “ovoz berish” jarayoni yakunida aniqlangan “g‘olib” takliflar ro‘yxati hamda undagi shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo‘yicha manzilli ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimligi moliya bo‘limi mudiri (O.Abdusalomov) va tuman bo‘yicha g‘aznachilik bo‘linmasi (E.Nahanov)larga budgetga tegishli o‘zgartirish kiritish, tumanning tegishli soha vakillari bilan belgilangan tartibda to‘lovni amalga oshirish hamda ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanishni nazorat qilish vazifasi topshirilsin.

5. “Nurobod” gazetasi tahririyati (N.Botirova), tuman hokimligining axborot xizmati rahbari (E.Pardayev) va tuman hokimligi moliya bo‘limi mudiri (O.Abdusalomov)lar bilan birgalikda 3-bosqich, ya’ni “ovoz berish” jarayoni yakunida aniqlangan “g‘olib” takliflar, shuningdek, undagi shakllangan tadbirlarning moliyalashtirilishi hamda amalga oshiriladigan ishlar bo‘yicha ma’lumotlarni keng jamoatchilikka muntazam ravishda yetkazib borish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (S.Suyarov) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (R.Ibragimov) zimmalariga yuklansin.

Sessiya raisi



B.Oblanov

Xalq deputatlari Nurobod tuman Kengashining
2022 yil 30 sentabrda
VI-59-143-7-99-K/22-son qaroriga
1-ilova

Tuman bo'yicha 2022-yil 2-mavsum jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha

“MANZILLI RO‘YXAT”

№	G'olib taklif ma'lumotlari					Amalga oshirishning dastlabki aniqlangan qiymati	Haqiqatda ajratilgan	Moliyalashtirish manbasi (FTJ, qo'shimcha manba, budjet parametri)	Buyurtmachi tashkilot	Loyihani amalga oshirish uchun talab etiladigan hujjatlar	xarid qilish tartib-taomili turi
	Taklif ID raqami	Manzili	Balandsa saqlovchi	Qisqacha mazmuni	To'plagan ovozlari soni						
“Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi”da shakllangan mablag'							5 115,0	x	x	x	x
1	0970600034	Nurobod tuman Arabota MFY	Nurobod tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	Tim qishlog'iga kirishdan Bunyodkor mahallasigacha bo'lgan 5 km yo'lini asfalt qilish	15 115,0	1 200,0	1 200,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Nurobod tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	loyiha-smeta hujjatlari	Eng yaxshi takliflarni tanlash
2	970600004	Nurobod tuman Sazag'on MFY	Nurobod tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	Sazag'on MFYga kirish qismidagi trassadan Qush chinor Oromgohiga borishdagi 4 N 513 D yo'lini kapital ta'mirlash uchun amaliy yordam berishingizni so'raymiz	14 727,0	1 200,0	1 200,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Nurobod tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	loyiha-smeta hujjatlari	Eng yaxshi takliflarni tanlash
3	970600081	Nurobod tuman Tegirmonboshi MFY	Nurobod tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	Ichki yo'llarni asfaltlashtirish va yoritish chiroqlarini o'rnatish. “Tegirmonboshi” mahallasi Haprin guzaridagi ichki yo'llarni (asosan 44-umumta'lim maktabidan boshlab O'rtabuloqcha bo'lgan tuproq yo'l) asfaltlashtirish va tungi yoritish chiroqlarini o'rnatish kerak. Ta'mirlanishi so'ralayotgan yo'lda sel natijasida suv yo'li kattalashib, o'pirilib jarlik hosil bo'lgan qismlarida selga qarshi himoya choralarini ham ko'rish lozim.	12 595,0	1 200,0	1 200,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Nurobod tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	loyiha-smeta hujjatlari	Eng yaxshi takliflarni tanlash
4	970600259	Nurobod tuman Chortut MFY	Nurobod tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	Nurobod tuman Chortut mahallasi Uyrug'ul qishlog'ining Toshpepa ko'chasining 2 km. qismini asfalt qilish (12-maktab oldidan yuqorigacha) iltimos shu yerlar ham asfalt qilinsa yaxshi bo'lardi.	12 066,0	1 200,0	1 200,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Nurobod tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	loyiha-smeta hujjatlari	Eng yaxshi takliflarni tanlash
Taqsimlanmagan mablag'							315,0	x	x		